




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE ROLE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES IN THE MEANINGFUL LEISURE ACTIVITIES OF STUDENT YOUTH

Akmal Khatov

Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)
University of Business and Science
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Student youth, leisure time, spiritual and educational activities, social activity, cultural heritage, literary evenings, spiritual level, reading, creativity, scientific activity.

Received: 18.03.25

Accepted: 20.03.25

Published: 22.03.25

Abstract: This article highlights the invaluable role of spiritual and educational activities in the meaningful leisure activities of student youth. Such events contribute to raising their spiritual level, understanding national and universal values, and increasing their social activity. Educational meetings, literary evenings, cultural tours, and lessons on spirituality broaden the horizons of young people and educate them in the spirit of patriotism, humanism, and creativity. Moreover, such events play an important role in making young people spend their time productively, removing them from harmful habits, and raising them to be thirsty for knowledge. Therefore, it is necessary to systematically and effectively organize spiritual and educational activities in higher educational institutions.

TALABA-YOSHLARNING BO'SH VAQTINI MAZMUNLI O'TKAZISHDA MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARNING O'RNI

Akmal Xayitov

dotsenti v.b. falsafa doktori (PhD)
University of Business and Science
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Talaba-yoshlar, bo'sh vaqt, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijtimoiy faollik, madaniy meros, adabiy kechalar, ma'naviy saviya, kitobxonlik, ijodkorlik, ilmiy faoliyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmuni o'tkazishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni beqiyos ekanligi keltirib o'tilgan. Bunday tadbirlar ularning ma'naviy savyasini

oshirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarni anglash hamda ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ma'rifiy uchrashuvlar, adabiy kechalar, madaniy sayohatlar va ma'naviyat darslari yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni vatanparvarlik, insonparvarlik va ijodkorlik ruhida tarbiyalaydi. Bundan tashqari, bunday tadbirlar yoshlarning vaqtini foydali o'tkazish, ularni zararli odatlardan uzoqlashtirish va bilimga chanqoq qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois oliv ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tizimli va samarali tashkil etish talab etiladi.

РОЛЬ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ В СОДЕРЖАТЕЛЬНОМ ПРОВЕДЕНИИ СВОБОДНОГО ВРЕМЕНИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Акмал Хайитов

и.о. доцент, доктора философии (PhD)

University of Business and Science

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Студенческая молодежь, досуг, духовно-просветительские мероприятия, социальная активность, культурное наследие, литературные вечера, духовный уровень, чтение, творчество, научная деятельность.

Аннотация: В данной статье подчеркивается неоценимая роль духовно-просветительских мероприятий в содержательном проведении свободного времени студенческой молодежи. Такие мероприятия служат повышению их духовного уровня, осознанию национальных и общечеловеческих ценностей и социальной активности. Просветительские встречи, литературные вечера, культурные экскурсии и уроки духовности расширяют кругозор молодежи, воспитывают их в духе патриотизма, гуманизма и творчества. Кроме того, такие мероприятия играют важную роль в полезном проведении времени молодежью, ограждении ее от вредных привычек и воспитании жажды знаний. Поэтому требуется системная и эффективная организация духовно-просветительских мероприятий в высших учебных заведениях.

Kirish. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyligi va ta'sirchanligini yanada oshirish, ma'naviyatning ma'no-mohiyati, milliy ma'naviyatimizning tub mohiyati haqida talaba-yoshlarga tushunchalar berishda, ularda insonparvarlik fazilatlarini

shakllantirishda, qadriyatlarning o‘rni ochib berishda madaniy tadbirlar alohida o‘rin tutadi. Bundan tashqari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mohiyatini tushuntirish, yurtimizga qarshi qaratilgan g‘oyaviy va axborot xurujlari, ularning ortida turgan kuchlarning g‘arazli maqsadlarini fosh qilish orqali hushyorlik va ogohlikka da’vat etishda ham ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar katta ta’sir kuchiga egadir.

Talaba-yoshlarning madaniy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirish, ma’rifiy-mafkuraviy bilimlarini hosil qilish hozirda juda ham zarur bo‘lib qolmoqda. Chunki, dunyoning tobora globallashib borayotganligi sababli turli tomonlardan «ommaviy madaniyat» deb nomlangan hodisa bizning yurtimizga ham kirib kelmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida muntazam o‘tkazilib kelinayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar talaba-yoshlarning ma’naviy yuksalishida asosiy omillardan biri bo‘la oladi, chunki ular o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etadi, amaliy tarzda o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, fikrlaydi va mazmunan anglab yetadi.

Ma’lumki, mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtini oqilona tashkil etish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning muayyan tizimi yaratildi. Barcha oliy o‘quv yurtlarida bo‘sh vaqtda talaba-yoshlarning bilim va saviyasini, dunyoqarashini kengaytirish, faol dam olishini tashkil etish maqsadida turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, bir qator tanlovlар, sport musobaqalari o‘tkazib kelinmoqda.

Jumladan, «Zakovat» intellektual turniri, «Konstitutsiya-farovon hayotimiz poydevori», «Korrupsiya taraqqiyot kushandası», «Odam savdosi davr muammosi» mavzularida «Eng yaxshi insho», «Vatan taraqqiyotiga mening hissam» mavzusidagi insholar tanlovi, «Ma’rifat maydoni», «Kitobxon talaba», «Zukko kitobxon» intellektual o‘yini, «Yosh kitobxon», «Yosh kitobxon oila», «Mushoira» tanlovlari, «Eng kitobxon oila», «Eng kitobxon guruhi», «Eng kitobxon fakultet» tanlovlari, «Uchinchi renessans-yoshlarnigohida», «Islohotlar bilimdoni», «Eng yaxshi maqola», «Bahor nafasi», «Onlayn-fototanlovlari», «Milliy maqom san’ati» festivali, «Milliy g‘oya targ‘iboti» video roliklari, «Jaholatga qarshi ma’rifat» mavzusida o‘tkaziladigan «Eng yaxshi plakat» tanlovlari yil davomida talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtida o‘z iqtidor va qobiliyatlarini namoyon etishga, ma’naviyatlarining yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Talaba-yoshlar o‘rtasida sportning 14 turidan «Barkamol avlod», «Universiada» sport musobaqalari, valibol bo‘yicha qizlar o‘rtasida, futbol bo‘yicha yigitlar o‘rtasida, vazir kubogi mini futbol bo‘yicha «Students Gup» musobaqalari talaba-yoshlarning jismoniy chiniqishi va sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotiga tatbiq etishida alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy, tadbirlarni tashkil etishda muayyan muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilgan bo‘lsada, globallashuv va integratsiya jarayonlari avj olayotgan hozirgi davrda talaba-yoshlar ongida kuchli tafakkur o‘zgarishlarini amalga oshirish o‘ta dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bunday murakkab sharoitda talaba-yoshlar o'rtasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish eng muhim vazifadir. Buning uchun, eng avvalo talaba-yoshlarda o'z ma'naviy qiyofasini boyitib borishga imkon beradigan sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish o'ta zarurdir. Sog'lom ma'naviy ehtiyoj inson qalbiga ezgulikni olib kiruvchi, yomon illatlardan himoya qiluvchi vositadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda tasvirga olingan va xalqimizga, ayniqsa, yoshlarimizga taklif qilinayotgan film va kitoblarda zo'ravonlik, hayosizlik, toshbag'irlik targ'ib etilayotgani hech kimga sir emas. Asarlarini dunyo bo'yicha nashr etish man etilgan fransuz yozuvchisi Markiz de Sad o'zining «Fohishaxonadagi falsafa» kitobida asl niyatini quyidagi mazmunda bayon etadi: «Biz butun dunyoni egallamog'imiz uchun bundan buyon katta muhorabalarda qatnashishimiz, jang-u-jadallar yuritib, dunyoning qay bir uzoq o'lkalarida farang askari halok bo'lishi-yu uning jasadi va etiklari chirib bitishi mutlaqo shart emas. Agar biz boshqa mamlakatlarga xususan Sharqqa axloqimizni menikiday kitoblar va boshqa yo'llar bilan tarqata olsak, uni o'sha xalqlarning turmush tarziga aylantira bilsak, jumlayi jahon oyog'imiz ostiga o'zi yukunib keladi, butun odamzodning qalbiga egalik qilishga muvaffaq bo'lamiz»[1:224].

Bunday g'oyalarga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish orqali ularning asl mohiyatini anglab yetish uchun ma'rifikat va bilimlar hosil qilishga doimiy e'tibor qaratilishi lozim. Chunki mafkuraviy immunitet o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ya'ni tarbiya orqali shakllantiriladi va u orqali mafkuraviy daxlsizlik ta'minlanadi. Shuning uchun barcha jabhalarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning noan'anaviy usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, seminar-treninglar, bahs-munozarali savol javoblar, davra suhbatlari va boshqa usullardan foydalanish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy sohadagi maqsadlar tizimi bilan bog'liq tarzda tashkil etish hamda xalqimizning ming yillar davomida shakllangan milliy-madaniy qadriyatlarini talaba-yoshlar ongi va qalbiga singdirish asosida mafkuraviy tazyiqlarning har qanday ko'rinishiga qarshi immunitetni yaratish imkoniyati tug'iladi.

Ma'naviy ehtiyoj o'z-o'zidan paydo bo'lmasligi ayni haqiqatdir. Shu ma'noda hozirda tashkil etilayotgan tadbirlarimiz aniq maqsadga erishishga, sog'lom ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishga xizmat qilyaptimi buni aniqlash muhimdir. Chunki sog'lom ma'naviy ehtiyoj orqaligina tafakkur erkinligiga, mustaqil fikrlashga erishish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar aniq maqsadga yo'naltirilmas ekan, undan jamoa, jamiyat hech qanday naf ko'rmaydi. Insonlarning qiziqishi, yoshi, xususiyatlari va boshqa jihatlarini e'tiborga olinib o'tkaziladigan har qanday tadbir bir tomondan, o'sha shaxsning sog'lom ma'naviy

ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, uning ma'naviy dunyosini boyitishga, mustaqil tafakkur tarzini tarbiyalashga imkoniyat yaratadi.

Mashhur faylasuf A.Shopengauer g'oyani san'atning predmeti sifatida talqin qiladi. Ma'naviy ehtiyojning shakllanish jarayonini o'rghanishda uning quyidagi misoli o'ta ibratlidir. «Ibtidoiy davrda qadimgi insonlar, ya'ni ovchilar ovga borishdan oldin devorga ovga bag'ishlangan harakatlar suratini chizishgan. Bu suratlar boshida amaliy xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, keyinchalik bu suratlarni chizgan odamlar o'z yaratgan obrazlaridan ta'sirlanib, ular orqali o'zlaridagi go'zal his-tuyg'ularini ifoda etishgan. Demak, tasviriy san'at insonlarning go'zallikka bo'lgan intilishlarini ifoda eta boshlaydi. Ilk amaliy maqsad yo'qolib, uning o'rnini san'atga bo'lgan hissiyot egalladi. Shunday qilib ovchi rassom, musavvir, raqqos, haykaltarosh, shoirga aylandi. Xuddi shu faoliyat san'atning tug'ilishiga turtki bo'ldi»[2:83].

Demak, san'atkorning go'zal asarlar yaratishga bo'lgan ma'naviy ehtiyojini shu tarzda ro'y berган, deb xulosa chiqarish mumkin. Talaba-yoshlarning muayyan san'atkor tomonidan yaratilgan asarni o'rghanish, o'zlashtirishga bo'lgan ma'naviy ehtiyoji ham g'oya asosida shakllanadi. Bugungi kunda talaba-yoshlarning turli "ommaviy madaniyat" ko'rinishlariga qiziqishini ayrimlar ehtiyoj deb baholaydilar. Ammo har qanday qiziqish ham ehtiyoj bo'lavermasligi nuqtai-nazaridan ushbu qiziqishini to'g'ri yo'naltira bilish asosida sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish zarur. Sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish har bir talabada ziyolilik sifatlarini tarbiyalab borishni talab qiladi. Talaba-yoshlarning kitob o'qishini tashkil etish, yangi asarlar taqdimotini o'tkazish, bir oyda bir marotaba bo'lsa-da «Men qanday kitob o'qidim» nomli tadbirni tashkil etish, o'tkazish zarurdir.

Tahlil va natijalar. O'zbek tilining izohli lug'atida, ziyoliga «Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi, ilmli, o'qimishli, ma'rifikatli» inson sifatida ta'rif beriladi»[3:147]. Shu ma'noda ziyoli shaxs belgisi o'zini anglash, o'zining sifatlarini rivojlantirishga ehtiyoj sezishi va o'zini ongli maqsad sari yo'naltirishi, boshqara olishida ko'rindi. Talaba-yoshlarda ziyolilikni shakllantirish shaxs va jamiyat manfaatlarini umumlashtirishga yo'naltirish hamdir.

Shuning uchun ham ma'naviy ehtiyojini shakllantirishda o'tmisht ma'naviy merosini chuqr o'rghanish asosida moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga intilishni rag'batlantirish alohida o'rin tutadi.

Shunga ko'ra talaba-yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish asosida yuksak ma'naviyatni shakllantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda bir qator ijtimoiy-amaliy, maqsadlar va vazifalarni belgilab olish maqsadga muvofiqdir:

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda talaba-yoshlarning qiziqishlari, ehtiyojlari, bilim va dunyoqarashlari darjasи, ijtimoiy faoliyklarini inobatga olgan holda ish rejalar, dasturlarini tuzish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda ta'sirchan faoliyat shakllari, vositalar hamda ilg'or metodlardan foydalangan holda ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida talaba-yoshlar bilan demokratik tamoyillar, o'zaro ham fikrlilik va hamkorlikka asoslangan ijobiy muhitni yaratib, ularda mustaqil va erkin fikrlash, babs-munozara yuritish malakasini shakllantirish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda talaba-yoshlarga hayotiy misollar orqali bunyodkor va buzg'unchi g'oyalar mohiyatini tushuntirish asosida ularda fidoyilik, vatanparvarlik xislatlarini tarbiyalash;

- talaba-yoshlarga ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning turli shakllari orqali mustaqillik, uni asrab-avaylash zarurligi haqidagi nazariy bilimlar berish asosida amaliy ko'nikmalar hosil qilish, ularning ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish.

Talaba-yoshlarning asosiy qismi «Yoshlar ittifoqi» a'zolari ekanligini hisobga olib, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ushbu ijtimoiy harakat faoliyati bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borish zarur.

Yoshlar ittifoqi talaba-yoshlar hayotida muhim o'rin tutadigan, jamiyat ijtimoiy hayotida faol qatnashishga yo'llaydigan, rag'batlantiruvchi, talaba-yoshlarning moddiy ehtiyojlari bilan birga, ma'naviy-ma'rifiy ehtiyojlarini ham huquqiy shaxslar e'tiboriga taqdim etuvchi subyekt tarzida ular hayotining tarkibiy qismlaridan biridir.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida talaba-yoshlar faoliyatini mazmunan tahlil etish, ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondashuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z xatti-harakatlarini real baholashga o'rgatib borish talab etiladi. Bunda o'tkazilgan tadbirlarni baholashda ekspert guruhi a'zolari safiga talaba-yoshlarni ham kiritish kerak bo'ladi. Talaba-yoshlar tadbirning qiziqarli tomonlari va kamchiliklarini xolisona baholaydilar.

Ushbu faoliyatni doimiy va muntazam ravishda amalga oshirish talaba-yoshlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ko'tarib chiqilgan muammoning tub mohiyatini anglash bilan birga ongli intizom, jamiyat talablariga javob bera olish ko'nikmasini hosil qiladi.

Talaba-yoshlar ongiga milliy g'oyani singdirish, yuksak ma'naviyatlari inson qilib tarbiyalashning muhim jihatlaridan yana biri ularning dunyoqarashi va e'tiqodlarini shakllantirishdan iboratdir.

O'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, tadbirlarni shunday tashkil etish zarurki, talaba-yoshlar madaniyat, ma'naviyat, muomala madaniyati, kasbiy etika va hokazolar bo'yicha olgan ko'nikma va malakalaridan o'z mustaqil ish faoliyatlarida foydalana olishsin.

Ma'naviy-ma'rifiy, tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib o'tkazish orqaligina talaba-yoshlarni milliy ma'naviy – axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ular ongiga milliy g'oya va mafkurani singdirish borasidagi faoliyatimizda yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Ma’naviy-ma’rifiy, ommaviy tadbirlarning talabalar va o‘quvchi yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashdagi ahamiyatini ilmiy tadqiq etish, avvalo shu atama va unga turdosh bo‘lgan «ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar», «madaniy tadbirlar», «badiiy-ommaviy tadbirlar», «ommaviy tadbirlar», «badiiy tadbirlar» singari atamalarning mazmun doirasi va mohiyatini aniqlashni taqozo etadi.

Biz fikr yuritayotgan atama to‘g‘risida professor U.H.Qoraboyev o‘zining «Madaniy tadbirlar» nomli kitobida quyidagicha fikr bildiradi. «Tadbirlarda keng qamrovli ishlar olib boriladi va ular kishilarning ishdan bo‘sh vaqtida kerakli axborotlar berish, badiiy – estetik zavqlantirish, madaniy – ijodiy ishga jalgan qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun xizmat qiladi». Shuning uchun ham unga kengroq tushuncha va atama zarur bo‘lmoqda. Ularni keng qamrovli «madaniy tadbirlar» deb atasa yaxshi bo‘ladi. Kezi kelganda shuni aytish lozimki, «ommaviy tadbirlar», «badiiy tadbirlar» atamalariga ham murojaat qilish mumkin»[4:31].

R.Sh.Rustamovaning «Talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari» mavzusidagi dissertatsiyasida esa «madaniy-ma’rifiy tadbirlar» atamasi qo‘llanilib, «Madaniy-ma’rifiy tadbirlar, deganda aholini ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularning madaniy saviyasini oshirish, bilimini o‘stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtini, dam olishini ko‘ngilli o‘tkazish, ijtimoiy, madaniy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi tadbirlar tushuniladi»[5:57] deb ta’rif beriladi.

Ushbu fikrlarga ma’lum darajada qo‘silgan holda shuni ta’kidlash kerakki, bizningcha bugungi kunda ushbu tadbirlar shunchaki bo‘sh vaqtni tashkil etish, mazmunli hordiq chiqarish, kerakli axborot bilan ta’minalash bilangina cheklanib qolmasdan, talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, ular ongida milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, bilim berish orqali ma’rifiy dunyoqarashni shakllantirishga qat’iy yo‘naltirilgan bo‘lishi nuqtai – nazaridan «ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar» deb atash maqsadga muvofiqdir. Chunki bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etishga yo‘naltirilgan tadbirlar madaniy tadbirlar hisoblansa-da, qatnashchilarga yangi bilimlar bermaganligi uchun ular ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lmasligi ham mumkin.

Bizningcha «Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar» – eng avvalo milliy g‘oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g‘oyalarga sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalashga, shuningdek, kishilarni ma’naviy tajovuzlardan ogohlikka chorlash, ularning mohiyatini anglab yetishga qaratilgan tizimli shakllar, usullar, vositalar va maqsadli amaliy harakatlar majmuidir.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbir ta’lim-tarbiyaning muhim yo‘nalishi sifatida uning asosiy maqsadi muayyan masala bo‘yicha bilim berish bilan birga anglangan xatti – harakatga yo‘naltirishdan iborat bo‘lib, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishning ikkita asosiy yo‘nalishi mavjuddir.

Birinchidan, insoniy fazilatlarni ulug‘lash, yuksak ma’naviyatli kishilar hayoti va faoliyatini ta’riflash, ularni ibrat, namuna qilib ko‘rsatish orqali kechadi. Ikkinchidan esa – muayyan illatlarni qoralash, ulardan xalos bo‘lishga da’vat, targ‘ibot qilish orqali amalga oshiriladi va bunda erishilgan yutuqlarni xolisona e’tirof etib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar xolisona nuqtai – nazardan baholanishi muhim ahamiyatga egadir.

Ma’naviy – ma’rifiy tadbirlarda ulug‘ ajdodlarimizning hayot yo‘li, qoldirgan merosini bирyoqlamalikka berilmay, to‘g‘ri va haqqoniy aks ettirishga, faqat o‘tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmasdan, bugungi kunda yon-atrofimizda faoliyat ko‘rsatayotgan ilg‘or zamondoshlarimizni o‘rnak sifatida ko‘rsata bilish muhim ahamiyatga egadir. O‘tmish va kechagi kun bilangina yashab qolmasdan, bugungi kundagi murakkab voqelikka tayanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng zamonaviy, ta’sirchan usullari va vositalaridan foydalangan holda ish olib borish hayotning qat’iy talabidir.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda bugungi murakkab ma’naviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, buzg‘unchi g‘oyalarning kimga va nimaga qarshi qaratilganligini aniqlash, ma’naviy – tajovuzlar mohiyatini ohib berish alohida ahamiyatga ega. Ana shundagina ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar mazmun – mohiyati bilan talaba-yoshlar qalbiga va ongiga yetib boradi. Faqat ana shunday asosda talaba-yoshlarni o‘z fikriga ega, ma’naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura oladigan, irodali, fidoyi, vatanparvar shaxs sifatida shakllantirish darajasiga erishish mumkin.

Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan shakllardan biri mavzuli kechalardir.

Mavzuli kechalarda ijrochilar va boshqa qatnashchilar bir butunlikni tashkil qilganligi uchun o‘z mohiyatiga ko‘ra ommaviy bayramlarga yaqin turadi. Mavzuli kechalar jamiyat, jamoa uchun ijtimoiy jihatdan muhim hisoblangan voqealarga, sanalarga bag‘ishlab o‘tkaziladi.

Masalan «Milliy g‘oya – bizning g‘oya», «Milliy qadriyatlar –bizning qadriyatlar», «Ommaviy madaniyat tahdidi va unga qarshi kurash zaruriyati», «Giyohvandlik umr zavoli» mavzularidagi kechalarning o‘ta muhimligini ta’kidlash mumkin.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘s sh vaqtda mavzuli kechalarni o‘tkazishga tayyorlanish bosqichi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kechani o‘tkazish uchun belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ijrochilardan tashqari boshqa qatnashchi tomoshabinlar ham jalb qilinadi. Bu holat A.Begmatov va R.Rustamovalarning ta’kidlashicha «mavzuli kecha ishtirokchilarining passiv kuzatuvchi emas, balki tadbirlarning faol qatnashchilariga aylanishini ta’minlaydi»[6:40].

Tadbirlardagi ijrochilar va kechaning boshqa qatnashchilari o‘rtasidagi uyg‘unlik uning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradigan eng muhim jihatlaridan biridir. Chunki talaba-yoshlarning ham ijrochi, ham ishtirokchi tomoshabin sifatida qatnashishi o‘ziga xos intellektuvlikni ham

ta'minlaydi. Mavzuli kechaning yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u yoritilayotgan muayyan mavzuning mohiyatini olib berish bilan birga ijrochilar va boshqa qatnashchilarning unga munosabatini ham ifodalaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Bugungi kunda oliv ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan kechalarning mavzu yo'nalishi quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Globallashuv sharoitida turli mafkuraviy, ma'naviy, g'oyaviy, axborot tahdidlariga qarshi kurashga bag'ishlangan mavzuli kechalar.
2. Giyohvanlikning salbiy oqibatlari, OITS kasalligining oldini olish, missionerlikning mohiyati haqidagi mavzuli kechalar.
3. Mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotidagi kundalik voqeа-hodisalarga, mehnatga bag'ishlangan mavzuli kechalar.
4. Milliy iftixorimiz, yoshlarga ibrat bo'ladigan buyuk allomalarimiz, olimlarimiz hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan mavzuli kechalar.

Bu yo'nalishdagi kechalarning markazida tarixiy shaxslar va hozirgi hayotimizda biz bilan bir davrda yashayotgan ulug' kishilar, olimlar, mashhur sportchilar, yoshlar uchun har tomonlama ibrat namunasi bo'la oladigan zamonomiz qahramonlari turadilar.

Bu tadbirlar ijtimoiy-siyosiy voqealar, mehnat – g'alabalarining qo'lga kiritilishi, mukofotlar topshirish, yubileyлarni nishonlash, mehnatda o'lkan yutuqlarga erishish, harbiy jasorat, muhim ilmiy kashfiyotlar, ta'lim, ilm-fan, san'at, sport sohasida erishilgan o'lkan yutuqlar munosabati bilan uyuştirilishi mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ichida bayramlarni rejalashtirish va tashkil etish alohida o'rin egallaydi. Professor U.Qoraboyev fikriga ko'ra «bayramlar tabiat va mehnat, axloq va ma'naviyat bilan bog'liq bo'lib, mehr-oqibat, qadr-qimmat, vatanparvarlik, muruvvat kabi insoniy fazilatlarning ravnaq topishiga xizmat qiladi va ularning mazmuniga insoniylik, olijanoblik, saxiylik, rahmdillik, mehr- muruvvatlilik kabi g'oyalar singib ketgan»[7:14-15].

Xalq bayramlari ajdodlarimizning eng yaxshi fazilatlari, fikrlari, tajribalari, yutuqlari, qadriyatlarini mujassamlashtirgani uchun jamiyatimizni axloqiy sog'lomlashtiruvchi, insonparvarlikni barqaror qiluvchi va barkamol avlodning kamol topishiga xizmat qiladigan muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bayramlar tomoshabinlarga muayyan axborot va bilim berish, ongiga va shuuriga ta'sir ko'rsatish orqali bajaradigan ma'naviy-ma'rifiy vazifalardan tashqari tarbiyaviy, badiiy-estetik, siyosiy-mafkuraviy vazifalarni ham bajaradi.

Bayramlarning tarbiyaviy funksiyasini ta'minlaydigan holatlardan biri uning tarixi, kelib chiqishi va mohiyatini to'la tushuntirish bilan bog'liqdir. Masalan, Navro'z bayramida insoniylik, mehr muruvvat o'zaro yordam, yaratuvchilik va obodonlashtirish targ'ib qilinibgina qolmasdan,

gina-qudrat, arazlashishga chek qo‘yilgan, hatto urushlar ham vaqtincha to‘xtatilgan. Bayramlar kelib chiqishi, o‘tkazilish davri, miqyosi, mazmun va mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy-siyosiy, mavsumiy, madaniy-ma’rifiy, sport bayramlari, diniy bayramlar, mehnat va tabiat bayramlari singari turlarga ajratiladi.

Yuqorida bayon qilinganidek bayramlar va bayramoldi tadbirlari oldindan rejalashtirilgan hamda tashkil etilgandagina ularning tarbiyaviy ta’siri yuksak darajada bo‘ladi.

Lekin, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bo‘sh vaqtida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishning ko‘p yillik tajribasi umumlashtirilgan tizimi yaratilgan bo‘lsada, kutilgan natijalarga erishilayapti deb bo‘lmaydi. Chunki, milliy o‘zligimiz va asriy ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlarning kuchayib borayotganligi shunday xulosa chiqarishga olib keladi.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati

1. Sharofiddinov O. Ma’naviy kamolot yo‘lida. – Toshkent: «Ma’naviyat». 2001. –224 b.
2. Quronboyev Q. Talabalarning ma’naviy – ijtimoiy faoliyklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Kamolot yoshlar tashkiloti misolida): Ped. fan. nom. dis. – Toshkent: 2000. – 83 b.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: «Universitet». 2-jild. 2006. – 147 b.
4. Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar. – Toshkent: 2003. – 31 b.
5. Rustamova R.Sh. Talaba yoshlarni ma’naviy ahloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari. Ped. fan. nomz.dis.- Toshkent: 2007. – 57 b.
6. Begmatov. A., Rustamova R. Milliy g‘oya targ‘iboti va madaniy-ma’rifiy tadbirlar. – Toshkent: «Ma’naviyat». 2007. – 40 b.
7. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: «Sharq». 2002. -14-15 b.